# BOSHLANG'CH TA'LIM O'QUVCHILARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Abdunabiyeva Omina**

UBS 1-boshqich magistranti

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari har taraflama rivojlanishining metodik masalalari yoritilgan bo`lib, axborot madaniyatini mutolaa orqali rivojlantirishning samarasi va o`quvchilarni kitob o`qishga odatlantirish usullari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, multimedia, axborot, savodxonlik, ta'lim muassasalari, axborot madaniyati.

**Аннотация**; В данной статье освещаются методические вопросы всестороннего развития учащихся начальных классов, описывается эффект развития информационной культуры посредством чтения и способы приучения учащихся к чтению.

**Ключевые слова;** образование, мультимедиа, информация, грамотность, образовательные учреждения, Информационная культура.

**Annotation:** this article covers methodological issues of the development of Primary School students in all directions, describes the effect of developing Information Culture Through Reading and methods of getting students used to reading books.

**Keywords:** education, multimedia, information, literacy, educational institutions, Information Culture.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohatlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan ta'im jarayonlarida axborot texnalogiyalaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz miqyosida mutolaa va o`qish madaniyatini oshirishga qaratilgan ishlar keng ko`lamda amalga oshirilmoqda. Xususan umumiy o`rta ta`lim tizimi bu borada samarali faoliyat olib bormoqda. Bizga ma`lumki o`qish savodxonligi qancha erta boshlansa natija shuncha yuqori bo`ladi. Aynan shu maqsadga yo`naltirilgan ta`limni boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada xorijiy tajribalar o`rganilib samaradorligi yuqori bo`lgan usullar ta`lim tizimiga tadbiq etilmoqda. Misol tariqasida TIMS dasturini aytib o`tishimiz mumkin ush xalqaro baholash dasturi 4 va 8- sinf o`quvchilarining o`qish savodxonligini va notanish matn bilan ishlash ko`nikmasini baholashga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining maqsadli, izchil, tizimli hamda samarali tashkil etilishida multimedia vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Multimedia bu turli xil axborot resuslarini tasvir, audio, matn va interaktiv elementlar birlashtirgan, foydalanuvchiga ko'pkanalli, ko'rish va eshtish tajribasini taqdim etadigan vositalar to'plami. Boshlang'ich ta'limda ishlatiladigan ba'zi

misollar;boshlang'ich sinf o'quvchilari masalan matn, rasm va animatsiyalarni o'z ichiga olgan elektron darsliklar.Rasmli hikoyalar yoshlarga o'qtish va yozishni o'rgatish uchun multimedia materiallari. Ko'rgazmali darslar multimediali ko'rgazmalar orqali o'quvchilar tarix,gieografiya va bioligiyadagi asosiy tushunchalarini tushunishlari mumkin. Multimedia vositalari o'quvchilarga ko'proq hissiy tajriba berishga, ularni faollashtirishga va o'qish jarayonini ko'proq qiziqarli qilishga yordam beradi.

Respublikamizda multimediali umum ta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi tomonidan elektron ta'lim materiallarini yozish, tahrirlash, ularga ishlov berish va davlat ta'lim standartlariga muvofiq turli fanlardan videooliklar ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlardan boshlang`ich ta`lim o`qituvchilari keng foydalanish imkoniyatiga egalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish, badiiy faoliyat bilan shugullanish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy axborot texnalogiyalaridan foydalanishning ijobiy jixatlari bo`lganidek ulardan foydalanishning salbiy oqibatlari to`g`risida ham ko`plab fikr-mulohazalar mavjud. Ba'zi fikr qarashlar zamonaviy axborot texnalogiyalari o'quvchilar ongiga ta'siri o'quvchilarning qiziquvchanligi sababli internet va mobil aloqa vositalarga bog'lanib qolishganligiga oid salbiy mulohazalar mavjud. Intrenet va mobil aloqani cheklash muammoning yechimi bo'lmasligini barchamiz bilamiz.

Bu yosh avlodni tarbiyalashda o'quvchilarda albatta internetdagi ma'lumotlarni foydalanish madaniyatini informatsion o'rgatish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimda elktron qo'llanmalar va virtual ta'lim tizimlaridagi ma'lumotlar bazasining ko'payishi o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi deb xisoblayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

1. Abdugodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma) Qarshi; Nafas 2011. 257 b

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. - T.: Fan, 2007. - 160 b

3. Boqiev R.R., Qayumova N. Axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasi.Metodik qo llanma. - Toshkent, TDPU, 2006. - 80 b.

4. Taylaqov N. Multimediali (keys) texnologiya. // Xalq ta'limi. - T.: 2004. - N°2. - B. 86-88.

5. Hayitov A.G'. Ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish. Uslubiy qo'llanma. -Buxoro: 1999. - 40 b.